

**NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI BAYRAM PAREMIYALARINING
KONSEPTUAL-SEMANTIK VA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI**

Yunusaliyeva Nozimaxon Zuxriddin qizi

Farg‘ona davlat universiteti

Chet tillari fakulteti nemis tili yo‘nalishi

3 - kurs 23.113 guruh talabasi

ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-9208-5708>

E-mail: nozimaxon57@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqolada nemis va o‘zbek tillari frazeologik tizimidagi bayram motivlariga aloqador maqol, matal va idiomalarning lingvokulturologik hamda konseptual-semantik jihatlarini qiyosiy aspektida tadqiq etilgan. Maqolaning maqsadi lingvistik nisbiylik nazariyasi va til-madaniyat uzviyligi ssenariylari asosida har ikki xalqning mentaliteti, qadriyatlar tizimi va dunyoqarash kodlarining paremiyalar qatlamida voqelanishini ochib berishdan iborat. Izlanish davomida qiyosiy-tipologik, kontekstual va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahliliy materiallar o‘zbek paremiyalarida bayram o‘zaro hamjihatlik, ijtimoiy integratsiya va jamoaviy birdamlik semantik maydonini shakllantirishini, nemis frazeologik birliklarida esa individual avtonomiya, diniy-falsafiy motivlar va shaxsiy emotsional holatlar ustuvor ekanligini ko‘rsatdi. Maqola xulosalari qiyosiy frazeologiya, lingvokulturologiya va madaniyatlararo diskurs nazariyasining dolzarb masalalari uchun nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: bayram paremiologiyasi, lingvokulturologik tahlil, konseptual maydon, milliy mentalitet, til dunyoqarashi, idiomatik konnotatsiya, qiyosiy frazeologiya.

**КОНЦЕПТУАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ И
ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРАЗДНИЧНЫХ
ПАРЕМИЙ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

Аннотация В данной статье в сравнительно-типологическом аспекте исследуются лингвокультурологические и концептуально-семантические параметры пословиц, поговорок и идиом, связанных с праздничными мотивами во фразеологических системах немецкого и узбекского языков. Цель исследования заключается в экспликации специфики вербализации национального менталитета, ценностных ориентаций и мировоззренческих кодов обоих народов в паремиологическом пласте языка на основе теории лингвистической относительности. В процессе работы были применены методы сопоставительного, контекстуального и компонентного анализа. Анализ материала продемонстрировал, что в узбекских паремиях праздник формирует семантическое поле социальной солидарности, коллективизма и межличностной интеграции, тогда как в немецких фразеологических единицах доминируют индивидуальная автономия, религиозно-

философские мотивы и персональные эмоциональные состояния. Выводы статьи вносят вклад в развитие сравнительной фразеологии, лингвокультурологии и теории межкультурного дискурса.

Ключевые слова: *праздничная паремиология, лингвокультурологический анализ, концептуальное поле, национальный менталитет, языковая картина мира, идиоматическая коннотация, сопоставительная фразеология.*

CONCEPTUAL-SEMANTIC AND LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS OF FESTIVE PAREMIAS IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES

Abstract *This article examines the linguoculturological and conceptual-semantic parameters of proverbs, sayings, and idioms associated with festive motifs within the phraseological systems of the German and Uzbek languages from a comparative-typological perspective. The study aims to explicate the specific verbalization of national mentality, value orientations, and worldview codes of both peoples in the paremiological layer of the language based on the theory of linguistic relativity. In the course of the research, methods of comparative, contextual, and component analysis were utilized. The analysis of the material demonstrated that while the concept of "holiday" in Uzbek paremias forms a semantic field of social solidarity, collectivism, and interpersonal integration, German phraseological units are dominated by individual autonomy, religious-philosophical motifs, and personal emotional states. The conclusions of the article contribute to the advancement of comparative phraseology, linguoculturology, and the theory of intercultural discourse.*

Keywords: *festive paremiology, linguoculturological analysis, conceptual field, national mentality, linguistic picture of the world, idiomatic connotation, comparative phraseology.*

KIRISH

Har bir xalqning tarixiy xotirasi, urf-odati va madaniy merosi bayramlar orqali namoyon bo‘ladi⁶. Bayramlar insonlar hayotida nafaqat ijtimoiy-ruhiy birlashuv vazifasini bajaradi, balki milliy o‘zlikni mustahkamlash vositasi ham hisoblanadi. Shu bilan birga, bayramlar turli xalqlarning ijtimoiy hayoti, diniy qarashlari, qadriyatlari va dunyoqarashini ifodalovchi madaniy hodisa sifatida ham ahamiyatlidir. Bayramlar orqali jamiyatda qadriyatlar avloddan-avlodga o‘tadi, milliy ong va an’ana yangilanadi hamda global madaniyat jarayonlari bilan uyg‘unlashadi.

Bayramlarga oid xalq og‘zaki ijodida, xususan, maqol-matal va idiomalarda milliy tafakkur, mentalitet, tarixiy an’ana va turmush tarzining o‘ziga xos xususiyatlari mujassam bo‘ladi. Bunday til birliklari xalq hayotida to‘plangan tajriba, ijtimoiy munosabatlar va axloqiy qadriyatlarni o‘zida mujassam etganligi sababli lingvokulturologik tadqiqotlar

⁶ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.

uchun muhim manba hisoblanadi. Bu iboralar tilning faqatgina kommunikativ vosita emas, balki xalqning ijtimoiy-madaniy xotirasini saqlovchi, identitetni ifodalovchi va keyingi avlodlarga yetkazuvchi vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Lingvokulturologik tahlil shuni anglatadiki, til birliklari madaniy kontekstdan uzilmagan holda o‘rganiladi. Til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi, ularning uzviy aloqasi aynan maqol-matal va idiomalar misolida yaqqol ko‘rinadi. Bayram mavzusiga oid frazeologik birliklar xalqning qadriyat tizimini, milliy xarakterini, diniy qarashlarini va ijtimoiy hayot tarzini ifoda etuvchi ramzlar sifatida qaraladi. Masalan, o‘zbek xalqi uchun bayramlar jamoaviylik, hamjihatlik, mehr-oqibat va baraka timsoli bo‘lsa, nemis xalqi bayramlarda ko‘proq diniy qadriyatlar, oilaviy birlashuv, shaxsiy quvonch va ma’naviy yangilanishni ta’kidlaydi.

Bugungi globallashtirish sharoitida turli xalqlarning bayram bilan bog‘liq frazeologizmlarni o‘rganish madaniyatlararo muloqot va o‘zaro anglashuvni rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir xalqning idiomalari va maqollari uning dunyoqarashini, qadriyat tizimini, ijtimoiy va diniy qarashlarini ifodalaydi. Shunday qilib, bayram mavzusiga oid maqol-matal va idiomalarni qiyosiy o‘rganish orqali ikki xalqning til-madaniyat kesishmasida shakllangan umumiylik va farqlarni ochib berish, shuningdek, milliy o‘zlik va madaniy xotiraning til birliklari orqali ifodalanishini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, u nafaqat o‘zbek va nemis tillaridagi frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini ochib beradi, balki xalqaro miqyosda madaniyatlararo muloqotni chuqurlashtirishga ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Til va madaniyatning o‘zaro aloqasi ko‘plab olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan. Xususan, V. fon Gumboldt tilni millat ruhining ifodasi sifatida talqin qilgan bo‘lsa⁷, E. Sepir va B. Uorf til va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni lingvistik nisbiylik nazariyasi orqali asoslab bergan. Bu yondashuv til birliklari orqali milliy dunyoqarashni o‘rganish imkonini yaratadi.

Frazeologiyaning lingvokulturologik tahlili bo‘yicha rus va yevropalik tadqiqotchilardan V. Telia, V. Karasik, D. Dobrovol’skiy va E. Piirainenlarning ishlari alohida ahamiyatga ega. V. Telia frazeologik birliklarni xalq mentaliteti va madaniyatini ifodalovchi semiotik tizim sifatida ko‘rsatadi⁸. Dobrovol’skiy va Piirainen esa frazeologik birliklarning interkultural semantikasini tahlil qilib, idiomalarda yashiringan madaniy konnotatsiyalarni ochib bergan⁹.

⁷ Humboldt, W. von. Über die Verschiedenheit des menschlichen Sprachbaues und ihren Einfluss auf die geistige Entwicklung des Menschengeschlechts. – Berlin: Druckerei der Königlichen Akademie der Wissenschaften, 1836. – 378 S

⁸ Telia V.N. Russkaya frazeologiya. Semanticheskii, pragmaticheskii i lingvokulturologicheskii aspekty. – M.: Shkola «Yazyki russkoy kultury», 1996. – 288 s.

⁹ Dobrovol’skiy D.O., Piirainen E. Figurative Language: Cross-cultural and Cross-linguistic Perspectives. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing, 2005. – 328 p.

O‘zbek tilshunosligida ham maqol-matal va frazeologizmlarning xalq og‘zaki ijodi va milliy qadriyatlarni ifodalashdagi roli ko‘plab tadqiqotlarda yoritilgan. O‘zbek xalq maqollari, o‘xshatishlar va iboralar jamiyat hayotidagi qadriyatlar, urf-odatlar va an‘analarni ifodalashda beqiyos manba hisoblanadi. Shu bois, bayram bilan bog‘liq til birliklarini qiyosiy o‘rganish ikki xalqning mentaliteti va dunyoqarashidagi o‘xshashlik hamda farqlarni aniqlashda dolzarb ilmiy yo‘nalishdir.

Xorijiy tadqiqotlarda nemis tilidagi bayramga oid frazeologik birliklar ko‘proq diniy qadriyatlar, xristian an‘analari va oilaviy marosimlar bilan bog‘langan. O‘zbek tadqiqotlarida esa Navro‘z, Ramazon va Qurbon hayitlari kabi bayramlar doirasida jamiyatning birligi, baraka, totuvlik va mehr-oqibat qadriyatlari asosiy semantik maydonni deb qarash mumkin.

Qiyosiy, lingvokulturologik va kontekstual tahlil usullaridan foydalangan holatda quyidagi bosqichlar amalga oshirildi:

Dastlab, o‘zbek va nemis tillaridagi bayram mavzusiga oid maqol-matal va idiomalar turli yozma manbalar (maqol to‘plamlari, frazeologik lug‘atlar, folklor to‘plamlari, zamonaviy adabiyotlar) asosida qator ma‘lumotlar to‘plandi. So‘ngra, topilgan iboralar mazmunan guruhlab chiqildi, ularning asosiy semantik maydonlari (quvonch, birlik, diniy qadriyat, baraka, mehr-oqibat, farovonlik va boshqalar) aniqlanib, o‘zaro qiyoslandi. Har bir til birligining madaniy konnotatsiyasi, tarixiy ildizi va xalq turmushidagi funksional vazifasi o‘rganildi. Qiyosiy yondashuv sifatida o‘zbek va nemis tillaridagi iboralar semantik va madaniy konnotatsiyalar jihatidan taqqoslandi, umumiylik va farqlar aniqlab chiqishga erishildi.

Tadqiqot jarayonida sifatli tahlil metodlaridan ham samarali qo‘llanilib, frazeologik birliklarning nafaqat lingvistik, balki madaniy va sotsiopsixologik qirralari ham yoritishga erishildi. Bu yondashuv o‘zbek va nemis xalqlarining bayram haqidagi qarashlarini chuqurroq anglash va ularning milliy tafakkuridagi o‘xshashlik hamda farqlarni ochib berishga imkon bera oldi.

NATIJALAR

O‘zbek va nemis tillarida bayram bilan bog‘liq maqol-matal va idiomalarni lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilish natijasida bir qator umumiylik va farqlar aniqlashga erishildi. Tadqiqot davomida yig‘ilgan til birliklari semantik maydonlarga ajratildi hamda ular xalqning mentaliteti va qadriyatlarini ifodalash xususiyatlari bo‘yicha solishtirib chiqildi. O‘zbek tilidagi bayramga oid frazeologizmlarga e‘tibor beradiga bo‘lsak o‘zbek xalq maqollari va idiomalarida bayram tushunchasi ko‘proq jamoaviylik, mehr-oqibat, birlik va baraka g‘oyalari bilan bog‘langan. Masalan: “*Bayramda osh bo‘lsa, qo‘shnidan yashirma*” iborasida bayramning ijtimoiy birdamlik va qo‘shnichilik qadriyatlarini mustahkamlashini ko‘rsatadi. Shuningdek, “*Navro‘zda tabiat uyg‘onadi, odamning ko‘ngli ham yashnaydi*” bu bilan bayramning tabiat va inson ruhiyati bilan uyg‘unligini ifodalanadi. “*Hayit mehr-oqibat ayyomi*” jamiyatda mehr va kechirimlilik g‘oyalarni targ‘ib etadi. Bu iboralarda o‘zbek xalqining kollektivizmga asoslangan turmush

tarzi va qadriyatlari yorqin aks etishini nglashimiz mumkin. Bayramlar nafaqat shaxsiy, balki jamoaviy quvonch sifatida ham talqinlashini anglashimiz mumkin.

Nemis tilidagi bayramga oid frazeologizmlarda asosan diniy motivlar, shaxsiy farovonlik va hayot zavqini aks ettiriladi. Masalan, *“Frohe Weihnachten bringt Freude ins Haus.”* (“Rojdestvo uyga quvonch olib keladi.”) Bu iboraning i bayramning diniy va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashini bildiradi.

“Feste soll man feiern, wie sie fallen.” (“Bayramlarni qanday kelgan bo‘lsa, shunday nishonlash kerak.”) Bu iboradan anglashimiz lozimki, hayotdan zavq olish, shodlik va kayfiyatni qadrlash g‘oyasi ilgari surilgan. Shuningdek, *“Zu Weihnachten kehrt Frieden ein.”* (“Rojdestvoda tinchlik hukm suradi.”) iborani tub ma‘nosi sifatida diniy va ma‘naviy yangilanish to‘g‘risda fikrlar ilgari surilganligini anglashimiz lozim.

Nemis xalqining bayram haqidagi tasavvurlari ko‘proq shaxsiy quvonch, oilaviy qadriyatlar hamda diniy marosimlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Taqqoslash natijasida xulosa qilish mumkinki, o‘zbek maqol-matal va idiomalarida kollektivizm, hamjihatlik, qo‘shnichilik qadriyatlari ustuvor g‘oya hisoblanadi. Nemis iboralarida esa individualizm, oilaviy qadriyat va diniy marosimlar ko‘proq aks etadi. Har ikkala til birliklarida ham bayram quvonch, yangilanish va mehr- oqibat ramzi sifatida talqin qilingan. O‘zbek tilidagi iboralarda milliy madaniyat va tabiat uyg‘unligi ko‘proq sezilsa, nemis tilida xristianlik an‘analari va diniy motivlar yetakchilik qilishini ko‘rishimiz mumkin.

MUHOKAMA

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, bayram mavzusiga oid til birliklari xalqlarning ijtimoiy-madaniy hayoti, mentaliteti va qadriyat tizimini aks ettiruvchi lingvomadaniy kodlar hisoblanadi. O‘zbek xalqining iboralarida milliy o‘zlikning asosiy mezon sifatida jamoaviylik va hamjihatlik yetakchi bo‘lsa, nemis xalqining idiomalarida individual shaxsning quvonchi va diniy an‘analarga sodiqligi ko‘proq e‘tirof etilgan.

Shuningdek, bu ilmiy izlanish mobaynida lingvokulturologiyaning asosiy vazifalaridan biri bo‘lgan “til orqali madaniyatni anglash” jarayoniga amaliy misol bo‘lib xizmat qiladi. Frazeologik birliklarni o‘rganish nafaqat lingvistik, balki sotsiologik va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim bo‘lib, ular orqali xalqlararo madaniy muloqot va o‘zaro anglashuv jarayoni rivojlanadi.

XULOSA

O‘zbek va nemis tillarida bayram bilan bog‘liq maqol-matal va idiomalar xalqning madaniy xotirasi, qadriyatlari va turmush tarzini yorqin aks ettirilganligini sezish mumkin. Ular nafaqat til birliklari, balki millat ruhiyati, mentaliteti va tarixiy an‘analarning ifodachisi sifatida ham xizmat qiladi. Qiyosiy tahlil jarayonidan bilish mumkinki, o‘zbek tilidagi iboralarda jamoaviylik, hamkorlik, qo‘shnichilik, mehr-oqibat va baraka tushunchalari yetakchi o‘rin egallaydi. Bu xalqning milliy turmush tarzi, kollektivizmga asoslangan qadriyatlari va hamjihatlikka intilishida o‘z aksini topadi.

Nemis tilidagi maqol-matal va idiomalar esa asosan diniy qadriyatlar, oilaviy birlik, shaxsiy farovonlik va hayotiy quvonch g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liq. Bu esa nemis

xalqining tarixiy rivojlanish jarayonida diniy an’analari va individual qadriyatlarga berilgan katta e’tibor bilan izohlanadi.

Umumiylik sifatida esa har ikkala tilda ham bayram quvonch, yangilanish va ijtimoiy birdamlik ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu esa bayramlarning insoniyat uchun umumiy ma’naviy qadriyat ekanligini ko’rsatadi.

Lingvokulturologik yondashuv bunday til birliklarini o’rganishda o’zini to’liq oqlay oladi. Chunki frazeologizmlar xalqning madaniy kodlarini, ijtimoiy qarashlarini va qadriyat tizimini aks ettiribgina qolmay, xalqlararo muloqotda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bayramlarga oid maqol-matal va idiomalarni o’rganish madaniyatlararo aloqalarni rivojlantirish, milliy o’zlikni anglash hamda turli xalqlar o’rtasida o’zaro anglashuv va bag’rikenglikni mustahkamlashda samarali vosita bo’lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari lingvokulturologiyaning nazariy asoslarini boyitish bilan birga, amaliy jihatdan ham o’z ahamiyatiga ega. Xususan, til o’qitish jarayonida bayram mavzusiga oid maqol-matal va idiomalardan foydalanish nafaqat til ko’nikmalarini, balki madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
2. Halliday M.A.K. Language as Social Semiotic: The Social Interpretation of Language and Meaning. – London: Edward Arnold, 1978. – 256 p.
3. Humboldt, W. von. *Über die Verschiedenheit des menschlichen Sprachbaues und ihren Einfluss auf die geistige Entwicklung des Menschengeschlechts*. – Berlin: Druckerei der Königlich-Akademie der Wissenschaften, S.1836. – 378
4. Kövecses Z. Metaphor in Culture: Universality and Variation. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – 320 p.
5. O‘zbek xalq maqollari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1987. – 450 b.
6. Phraseologie und Kulturwissenschaft / Hrsg. von H. Burger, A. Häcki Buhofer. – Tübingen: Narr Verlag, 2003. – 320 S.
7. Sharipova D. Lingvokulturologiya asoslari. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 210 b.
8. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya. Semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspekty. – M.: Shkola «Yazyki russkoy kultury», 1996. – 288 s.
9. Wahrig-Burfeind R. Wahrig Deutsches Wörterbuch. – München: Bertelsmann, 2008. – 1120 S.
10. Мудрик А.В. Социализация человека: учеб. пособие для студентов высш. учеб. зав. / А.В. Мудрик. – 2-е издание., испр. и доп. – М.: Издательский центр “Академия”, 2006. – С.304.
11. Ходжаев Б.Х. Pedagogik aksiologiya. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 256 b.